

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### DAVLAT BOSHQARUVINING OCHIQLIGI VA SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH HAMDA MAMLAKATNING STATISTIKA SALOHIYATINI OSHIRISH YUZASIDAN QO'SHIMCHA CHORA- TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Mamlakatda statistika axborotidan foydalanish samaradorligini oshirish, davlat statistika hisobotini ishonchli ravishda yuritishni shakllantirish yuzasidan izchillik bilan choralar ko'rilmog'da. Internetdagi yig'ma ma'lumotlarning milliy sahifasi Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlarini tarqatishning kengaytirilgan umumiy tizimi bilan uyg'unlashtirildi.

Shu bilan birga, axborotlarning umumfoydalanish uchun ochiqlik holati, ochiq ma'lumotlarning oshkoralik va sifat darajasi, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatga yetkazishning amaldagi mexanizmlari qabul qilingan xalqaro talablarga to'liq javob bermaydi va natijada mamlakatimizning statistika salohiyati indeksidagi o'rni pastligicha qolmog'da.

Mamlakatimiz nufuzi va investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga qaratilgan, davlat boshqaruvining ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlash borasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid [Davlat dasturidagi](#) vazifalarni bajarishni ta'minlash maqsadida:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning mashinada o'qiladigan formatdagi axborotdan ko'p karra, erkin va bepul foydalanish imkonini beruvchi O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali (keyingi o'rinlarda — Portal) faoliyat yuritmog'da.

2. Belgilansinki:

a) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Davlat statistika qo'mitasi) davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini (keyingi o'rinlarda — Ro'yxat) shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning Portalda o'z vaqtida aks ettirilishi bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) Portalni texnik qo'llab-quvvatlash va ta'minlash hamda uzluksiz ishlab turishi uchun javobgar hisoblanadi;

*(2-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son)*

v) Portalda axborotlar:

faqat davlat organlari va tashkilotlarining respublika darajasidagi yuqori turuvchi tuzilmalari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan e'lon qilinadi;

o'zbek, rus va ingliz tillarida, shu jumladan mashinada o'qiladigan va boshqa formatlarda e'lon qilinadi;

davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy saytlarida e'lon qilinadigan axborot bilan aynan bir xil va o'zaro bog'langan bo'lishi lozim;

g) davlat organlari va tashkilotlarida axborotni tayyorlash va Portalda joylashtirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5635-son [Farmoniga](#) muvofiq tashkil qilingan, xalqaro reytinglar bilan ishlash va "Elektron hukumat" tizimini joriy etish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan bo'linmalar zimmasiga yuklanadi.

3. Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy soni doirasida davlat organlari va tashkilotlarining Portalda Ro'yxatni

shakllantirish, yuritish va yangilash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq ishlar uchun mas'ul bo'linma tashkil etilsin.

Davlat statistika qo'mitasi bir oy muddatda bo'linmaning yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlasin.

4. Davlat statistika qo'mitasiga Portalni rivojlantirish faoliyatini amalga oshirish doirasida quyidagi huquqlar berilsin:

ma'lumotlar va ularning manbalaridan, shu jumladan ma'lumotlarni shakllantirish sohasida huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ichki va boshqa hujjatlar hamda ulardan foydalanish;

Portalni rivojlantirish, shuningdek, e'lon qilinadigan ma'lumotlarga taalluqli masalalar bo'yicha davlat organlari va tashkilotlaridan beg'araz asosda maslahat yordami olish;

ushbu qarorni bajarish doirasida ekspertlar, konsultantlar va tashkilotlarni (shu jumladan, xorijiy) shartnoma asosida jalb etish;

Portalni takomillashtirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar sohasidagi faoliyatini baholash uchun xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlarning mablag'larini, shu jumladan grantlari (texnik ko'magi)ni jalb etish.

5. Belgilansinki, 2019-yil 1-apreldan:

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati xodimlarining lavozim maoshlarini Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga asosan belgilashda tarif koeffitsiyenti 1,3 baravarga oshirgan holda qo'llaniladi;

davlat statistika organlari xodimlariga ko'p yillik xizmatlari uchun har oylik ustamalar quyidagi miqdorlarda to'lanadi (rag'batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda lavozim maoshlariga nisbatan koeffitsiyentlarda): 2 yildan 5 yilgacha — 0,1; 5 yildan 10 yilgacha — 0,2; 10 yildan 15 yilgacha — 0,3; 15 yildan 20 yilgacha — 0,4; 20 yildan 25 yilgacha — 0,5; 25 yildan ortiq — 0,6. Ko'p yillik xizmatlari uchun mukofot puli olish huquqini beradigan ish staji O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu bandeda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

6. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi [1-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida joylashtirish uchun ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini tuzishda ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalarini o'rganib chiqish uchun mas'ul vazirlik va idoralar ro'yxati [2-ilovaga](#) muvofiq;

“Ochiq ma'lumotlar global indeksi” va “Ochiq ma'lumotlar barometri” talablariga muvofiq ma'lumotlarning ochiqlik holatini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida tegishli indikatorlarni joylashtirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq;

Alohida tarkibiy indikatorlar bo'yicha Statistika salohiyati indeksida mamlakatning o'rnini yaxshilashga oid “Yo'l xaritasi” [4-ilovaga](#) muvofiq;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(6-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2020-y., 07/20/4796/1136-son)*

Xalqaro budget hamjamiyatining Budget ochiqligi indeksida 2020-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash bo'yicha “Yo'l xaritasi” [6-ilovaga](#) muvofiq;

2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida yangilanishi lozim bo'lgan axborot-kommunikatsiya tizimlari uskunalari ro'yxati [7-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

7. Quyidagilarning:

a) davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining:

Portalda e'lon qilinadigan axborotning to'liqligi, ishonchliligi, uning o'z vaqtida shakllantirilishi va yangilab turilishi;

Portalda joylashtiriladigan axborotning mazmuni va sifati;

Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi axborotlarining oshkoraligi va foydalanish erkinligini ta'minlash;

tegishli axborotni shakllantirishda xalqaro metodologik standartlarni, tavsiyalarni o'rganish hamda ularni amalda qo'llash yuzasidan;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) Vazirlikning Portaldan O'zbekiston Respublikasi to'g'risida zarur axborotni olishda ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish yuzasidan;

*(7-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son)*

v) Davlat statistika qo'mitasining xalqaro tajribani va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda Portalda e'lon qilinadigan Ro'yxatning muntazam yangilanib turilishini ta'minlash yuzasidan shaxsan javobgarligi belgilab qo'yilsin.

8. Agentlik 2019-yil 1-avgustga qadar Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda ma'lumotlar to'plami va ular egalarining yagona reyestrini shakllantirgan holda barcha turdagi hisobotlar hamda ma'lumotlar bazalari integratsiyalashtirilishini nazarda tutuvchi ma'lumotlarni boshqarish davlat tizimini yaratish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin.

9. Ushbu qarorning [2-ilovasida](#) ko'rsatilgan vazirlik va idoralar Agentlik hamda Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda:

2019-yil 10-mayga qadar iqtisodiyot tarmoqlaridagi joriy ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning miqdor, sifat va mazmunga oid parametrlarini tavsiflovchi xalqaro ko'rsatkichlarni ushbu indikatorlar mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash nuqtai nazaridan o'rganib chiqsin;

2019-yil 20-mayga qadar iqtisodiyot tarmoqlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatning xalqaro ko'rsatkichlarini o'rganish asosida Portalda joylashtiriladigan Ro'yxatni zarur axborot (indikatorlar) bilan, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazalari tizimlari bo'yicha axborot bilan to'ldirsin;

2019-yil 1-iyungacha qadar mavjud bo'lmagan indikatorlarni shakllantirish metodikasini o'rgansin hamda keyinchalik Portalda joylashtirish uchun ularni ishlab chiqish bo'yicha zarur choralarni ko'rsin.

10. Ushbu qarorning [3-ilovasida](#) ko'rsatilgan mas'ul ijrochilar Agentlik va Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda 2019-yil 20-mayga qadar "Ochiq ma'lumotlar global indeksi" va "Ochiq ma'lumotlar barometri" metodikasining asosiy yo'nalishlariga muvofiq ma'lumotlar ochiqligi holatini o'rganib chiqsin va tahlil qilsin hamda mavjud ma'lumotlarni Portalda e'lon qilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2019-yil 1-iyulga qadar yagona metodologik yondoshuvni ishlab chiqish va keyinchalik Portalda joylashtirish uchun ulardan foydalanishni inobatga olgan holda hududning investitsiyaviy salohiyatini to'la-to'kis ochib beruvchi axborot va materiallar ro'yxatini Davlat statistika qo'mitasi va Agentlikka kiritsin;

Portalni takomillashtirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar sohasidagi faoliyatini baholash uchun xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlarning mablag'larini, shu jumladan grantlari (texnik ko'magi)ni jalb etishda Davlat statistika qo'mitasiga ko'maklashsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

12. Davlat statistika qo'mitasi:

*(12-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son)*

a) 2019-yil 1-iyungacha qadar:

Portalda joylashtirishning aniq muddatlari va shakllarini belgilagan holda Ro'yxatni tasdiqlasin;

xalqaro ma'lumotlar bazalarini qo'shimcha ravishda o'rganib chiqsin va axborotning yangi parametrlarini ishlab chiqish choralarini ko'rib, keyinchalik ularni Ro'yxatga kiritsin;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining 2020-yildan boshlab "Ochiq ma'lumotlar global indeksi" va "Ochiq ma'lumotlar barometri" xalqaro reytinglarida ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin;

b) uch oy muddatda Ochiq ma'lumotlar puxtaligi modeli ("Open Data Maturity Model") hamda boshqa xalqaro amaliyotlar asosida davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar sohasidagi faoliyatini baholash mexanizmini ishlab chiqsin va joriy etsin hamda natijalarni har chorakda Portalda e'lon qilib borsin;

v) davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ochiq ma'lumotlarning joylashtirilishi va muntazam yangilab turilishi ustidan doimiy monitoring qilinishini ta'minlasin.

### 13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Davlat statistika qo'mitasining 2019-yilda ushbu qarorni amalga oshirish doirasidagi sarf-xarajatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlari doirasida mablag'lar ajratsin va 2020-yildan boshlab har yili zarur budjet mablag'larini nazarda tutsin;

*Oldingi tahrirga qarang.*

har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturining qiymatini hisoblashda bazaviy hisoblash miqdorlari yanada oshirilganini inobatga olsin;

*(13-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda PF-5894-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son)*

7-ilovaga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasida yangilanishi lozim bo'lgan axborot-kommunikatsiya tizimlari uskunalari xarid qilish uchun 2020-2021-yillarda Davlat budjetidan Davlat statistika qo'mitasiga zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlasin.

14. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan davlat statistika organlarining axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun belgilangan tartibda tuziladigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan kompyuter texnikasi, server va kommunikatsiya uskunalari, dasturiy ta'minot vositalari hamda ularning ehtiyot qismlari va butlovchi buyumlari 2022-yil 1-yanvarga qadar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod qilinsin.

### 15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

ikki oy muddatda o'z binolariga ega bo'lmagan hududiy statistika organlarini joylashtirish choralarini ko'rsin;

hududiy statistika organlarining davlat tasarrufidagi binolar va xonalardan foydalanganligi uchun ijara haqi qiymatini "nol" stavkada belgilasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Vazirlik hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining:

*(16-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son)*

2020-2021-yillarda YUNISEF bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida multiindikator klaster tekshiruvlarini o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar markazi negizida belgilangan shtat birliklari soni doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutini (keyingi o'rinlarda — Institut) tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

### 17. Quyidagilar Institut faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilansin:

davlat statistika organlari hamda boshqa vazirlik va idoralar xodimlarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda takomillashtirishni, shuningdek, kasb mahorati yuksak darajada bo'lishini ta'minlaydigan tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish;

statistika borasidagi ko'nikmalarni rivojlantirish, tahliliy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ularni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, asosan ixtisoslik fanlaridan iborat bo'lgan zamonaviy ta'lim standartlari va sifat jihatidan yangi o'qitish tizimini joriy etish;

statistika sohasidagi ilg'or tajriba va ilmiy-tadqiqot yutuqlarini ayirboshlash, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va stajirovka o'tashi bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy hamda ta'lim muassasalari, xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

milliy darajada qo'llanilayotgan metodologik vositalar, davlat va idoraviy statistik kuzatuvlarni xalqaro darajada uyg'unlashtirish, moslashtirish va qiyoslash nuqtai nazaridan ularni malakali ekspertizadan o'tkazish;

keyinchalik amaliyotda qo'llash uchun ilg'or statistika metodlari va texnologiyalari, shuningdek, ochiq ma'lumotlar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

a) Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda:

2019-yil 1-iyulga qadar Portalda tegishli axborotni e'lon qilish va yangilash tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanishini, shuningdek, noto'g'ri davlat statistika hisobotlarini taqdim qilganligi uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini;

2019-yil 1-dekabr qadar ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonun loyihasini;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan hamkorlikda 2019-yil 1-oktabrga qadar "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Axborotdan foydalanish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi hamda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarning, shuningdek, axborotni tarqatishga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning me'yorlari unifikatsiyalashtirilishini nazarda tutuvchi axborotni tarqatish sohasidagi qonun loyihasini ishlab chiqsin hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritсин.

19. Davlat statistika qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

a) quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish;

2020-2021-yillarda YUNISEF bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida multiindikator klaster tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi hukumat qarori loyihasini;

b) qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

20. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — moliya vaziri J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 9-aprel,  
PQ-4273-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi  
PQ-4273-son qaroriga  
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalini takomillashtirish bo'yicha****CHORA-TADBIRLAR KOMPLEKSI***Oldingi tahrirga qarang.*

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirning nomi</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas'ul vazirlik va idoralar</b>
1.	Ochiq ma'lumotlar to'plamining umumlashtirilgan ro'yxatini ularni O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida (keyingi o'rinlarda — Portal) joylashtirish muddatlari va shakllarini belgilagan holda ishlab chiqish va tasdiqlash.	2019-yil 1-iyun	Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ), LBMA ( <i>D. Li</i> ),  ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
2.	Portal bilan idoraviy axborot tizimlarini integratsiya qilish texnik talablarini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun	LBMA ( <i>D. Li</i> )
3.	Portalni takomillashtirish, shu jumladan unda quyidagilarni nazarda tutish:  portal interfeysini ilg'or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda yangilash;  ma'lumotlar bilan ishlashda foydalanuvchilarga qulay sharoit yaratish maqsadida ma'lumotlarni aks ettirish va vizualizatsiya interaktiv funksiyalarini qo'shish;  ma'lumotlarni ularning belgilariga qarab aniqlash yo'li orqali o'zaro aloqador to'plamini yaratish imkoniyatini ta'minlash;  vazirlik va idoralarning idoraviy axborot tizimlari va resurslarini Portal bilan integratsiya qilish imkoniyatini yaratish;  Portalning ingliz tilidagi versiyasini ishga tushirish.	2019-yil 1-avgust	LBMA ( <i>D. Li</i> ),  Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ) ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
4.	Portal bilan davlat organlarining idoraviy axborot tizimlari va resurslarini integratsiya qilish.	2019-yil 1-avgust	LBMA ( <i>D. Li</i> ), ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
5.	Portalda zarur ma'lumotlarni tasdiqlangan Ochiq ma'lumotlar to'plami ro'yxati va e'lon qilish muddatiga muvofiq mashinada o'qiladigan (json, xml, csv), .xls va boshqa formatda joylashtirish va yangilash.	Belgilangan muddatlarga muvofiq	<i>Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov)</i> , ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
6.	Ma'lumotlarni standartlashtirilgan shaklda yuritish yoki interaktiv (raqamli) xaritada nuqtani tanlash imkonini beradigan geolokatsiya ma'lumotlarini kiritish instrumentini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyul	LBMA ( <i>D. Li</i> ), ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
7.	Ochiq ma'lumotlar to'plamiga taqdim etilgan geografik obyektlarga geolokatsiya axborotlarini berish.	Ma'lumotlar yangilanib borishiga qarab	<i>Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov)</i> , ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
8.	Portalning ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntini mazkur translatsiyani Portalga joylashtirgan holda doimiy yangilab borish bo'yicha ishlarni faollashtirish.	Doimiy ravishda	<i>Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov)</i>
9.	Yuqori talabga ega bo'lgan idoraviy forumlarni Portalda integratsiya qilishni ta'minlash.	2019-yil 1-iyul	LBMA ( <i>D. Li</i> ), ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar

10.	Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va tahliliy markazlarda ilmiy xodimlardan iborat maxsus guruhlarini tashkil etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlarini tuzish rejalariga ochiq ma'lumotlarni rivojlantirishga bag'ishlangan mavzularni kiritish.	Har yili	Fanlar akademiyasi (B.Yuldashev),  Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Majidov), Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov), manfaatdor vazirlik va idoralar
11.	Umumfoydalanishdagi axborotlarni o'rganish maqsadida IT-kompaniyalar o'rtasida tanlovlar o'tkazish jadvallarini ishlab chiqish.	Jadval asosida	Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov), Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki
12.	Ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar xodimlarini ochiq ma'lumotlar to'plamini tayyorlash va ularni Portalda joylashtirish masalalari bo'yicha qo'shimcha o'qitish.	Doimiy ravishda	Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov)
13.	Portalni "Ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registri" davlat axborot tizimiga integratsiya qilish.	2019-yil 1-sentabr	LBMA (D. Li)
14.	Vazirlik va idoralarning axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali "Ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registri"ning aktualigini ta'minlash.	Doimiy ravishda	Vazirlik va idoralar
15.	API Portal servislari ishlab chiqishni oxiriga yetkazish va kengaytirish, ma'lumot olishning yangi texnologiyalarini, shu jumladan GraphQL texnologiyasini qo'shish.	2019-yil 1-oktabr	LBMA (D. Li)
16.	Portalda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlarining barcha foydalanadigan reyestrlari va veb-saytlar bo'yicha ochiq ma'lumotlarni izlashga imkon beruvchi yagona izlash mexanizmini yaratish.	2019-yil 1-oktabr	LBMA (D. Li)
17.	Kelgusida katta hajmdagi ma'lumotlarni e'lon qilish maqsadida ma'lumotlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlash bo'yicha metodologiya va tizimostini ishlab chiqish.	2019-yil 1-oktabr	LBMA (D. Li)
18.	Portalda Portal konteksti bilan bog'liq yuqori talabga ega idoraviy yangiliklarni joylashtirishni ta'minlash.	Doimiy ravishda	Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov), ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar
19.	Ma'lumotlarni yetkazuvchi organlar tomonidan ma'lumotlarning standart sarlavhalari bilan format-mantiqiy tekshirishni, matndagi imlo va xatolarni tekshirishni ta'minlash imkonini beruvchi ochiq ma'lumotlar to'plamini joylashtirish va yangilashni monitoring qilish modulini ishlab chiqish.	2019-yil 1-oktabr	LBMA (D. Li)

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-sonli *Farmoni* tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son)

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi  
PQ-4273-son qaroriga  
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida joylashtirish uchun ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini tuzishda ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalarini o'rganib chiqish uchun mas'ul vazirlik va idoralar**

RO'YXATI

T/r	Xalqaro ma'lumotlar bazasining nomi*	Mas'ul vazirlik va idoralar
-----	--------------------------------------	-----------------------------

1.	<b>Jahon rivojlanish indikatorlari, Jahon banki.</b> (World Development Indicators, World Bank)	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ( <i>B. Xodjayev</i> ), Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
2.	<b>BMT statistika departamentining ma'lumotlar bazasi.</b> (UN data)	Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
3.	<b>"Jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari" ma'lumotlar bazasi</b> <b>Xalqaro valyuta jamg'armasi.</b> (World economic outlook databases, IMF)	Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ), Markaziy bank ( <i>M. Nurmuratov</i> ), Moliya vazirligi ( <i>A. Xaydarov</i> ), vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
4.	<b>Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, Xalqaro mehnat tashkiloti.</b> (Key indicators of the labour Market, ILO)	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ( <i>Sh. Kudbiyev</i> ), Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ), vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
5.	<b>Global sog'liqni saqlash observatoriyasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.</b> (Global Nealth Observatory data, World Nealth Organization)	Sog'liqni saqlash vazirligi ( <i>A. Shadmanov</i> ), Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
6.	<b>Suv ta'minoti va qishloq xo'jaligi bo'yicha global axborot tizimi.</b> <b>Akvastat, FAO.</b> (Global information system of water and agriculture. Aquastat, FAO)	Suv xo'jaligi vazirligi ( <i>Sh. Xamrayev</i> ), Qishloq xo'jaligi vazirligi ( <i>J. Xodjayev</i> ), Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
7.	<b>Savdo va import to'siqlari to'g'risida ma'lumotlar, Jahon banki.</b> (Data on trade and import barriers, World bank)	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ( <i>S. Umurzakov</i> ),  Davlat bojxona qo'mitasi ( <i>M. Azimov</i> ) vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
8.	<b>Global energiya ma'lumotlar, Xalqaro energiya agentligi.</b> (Global energy data, International Energy Agency)	Energetika vazirligi ( <i>A. Sultonov</i> ), Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
9.	<b>Asosiy transport statistikasi, Xalqaro transport forumi.</b> (Key Transport Statistics, International Transport Forum)	Transport vazirligi ( <i>I. Maxkamov</i> ), Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)



10.	<b>Ta'lim bo'yicha milliy statistika, YUNESKO.</b> (National Statistics on Education, UNESCO)	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> ), Xalq ta'lim vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Maktabgacha ta'lim vazirligi ( <i>A. Shin</i> ),  Davlat statistika qo'mitasi ( <i>B. Begalov</i> ),  vazirlik va idoralar (taalluqli qismi)
-----	--	---

Izoh: xalqaro ma'lumotlar bazasining ro'yxati vazirlik va idoralar tashabbusi bilan to'ldirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi  
PQ-4273-son qaroriga  
3-ILOVA

**“Ochiq ma'lumotlar global indeksi” va “Ochiq ma'lumotlar barometri” talablariga muvofiq ma'lumotlarning ochiqligi holatini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida tegishli indikatorlarni joylashtirish uchun mas'ul vazirliklar va idoralar**

RO'YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

T/r	Toifalar nomlanishi	Parametrlar	Tarkibiy indikatorlar	Mas'ul vazirlik va idoralar
1.	O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti	Rejalashtirilgan davlat xarajatlari.	vazirlik, idoralarning budjeti;  tarmoqlar kesimidagi budjet;  iqtisodiy tasniflash kesimidagi budjet;  hududlar kesimidagi budjet.	Moliya vazirligi  ( <i>A. Haydarov</i> )
